

Fizika fanining qirralari

Hozirgi kunda fizika fani va uning amaliy tadbirlari natijasi o'laroq, paydo bo'lgan zamonaviy texnologiyalarning qator turlarisiz hech narsani tasavvur qilib bo'lmaydi. U o'zining qonuniyatlari bilan hayotimizning barcha sohalariga singib ketgan. Fizika fanlarning rivojini hayotning o'zi yuzaga chiqarayapti. Bu ayniksa ushbu fanning murakkab tizimlarning evolyusiyasini modellashtirish masalalarida yaqqol namoyon bo'lyapti. Buni ayniqsa, ekonofizika, sotsio fizika, tibbiyot fizikasi va nanofizika kabi ilg'or sohalarning shiddat bilan rivojlanishi va keng qamrovli amaliy tadbirlar topayotgani misolida ko'rishimiz mumkin.



Institutimiz rektorining tashabbusi bilan tashkil etilgan tadbirda murakkab tizimlar fizikasi va nohiziqli fizika sohalari bo'yicha yirik mutaxassis, O'zbekiston Fizika Jamiyati raisi, fizika-matematika fanlari doktori, professor Davron Matrasulov ishtirok etdi. U o'z mutaxassisligi nuqtai nazaridan bugungi zamonaviy murakkab tizimlar fizikasining so'nggi yangiliklari va ushbu sohaning epidemiyalar tarqalishi, tabiiy ofatlar va moliyaviy-iqtisodiy buhronlarni prognoz qilish kabi qator dolzarb masalalarga amaliy tadbiri haqida mufassal ma'lumotlar berib o'tdi. Institutimizning professor - o'qituvchilari o'zlarini qiziqtirgan savollarga to'la javob olishdi.



TIQXMMI matbuot xizmati